



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLILIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	



AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya. Aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aholi real daromadlarini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy va uslubiy asoslari, daromadlar shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda davlatning fiskal, monetar, ijtimoiy va institutsional siyosat vositalarining o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aholi real daromadlari, davlat siyosati, daromadlarni tartibga solish, fiskal siyosat, monetar siyosat, ijtimoiy himoya, inflyatsiya, bandlik, minimal ish haqi, aholi farovonligi.

Abstract. State regulation mechanisms aimed at increasing the real income of the population constitute one of the priority areas of modern economic policy. This article examines the theoretical and methodological foundations of state regulation of the population's real income, the key factors influencing income formation, and the role of fiscal, monetary, social, and institutional policy instruments.

Keywords: real income of the population, state policy, income regulation, fiscal policy, monetary policy, social protection, inflation, employment, minimum wage, public welfare.

Аннотация. Механизмы государственного регулирования, направленные на повышение реальных доходов населения, являются одним из приоритетных направлений современной экономической политики. В статье рассматриваются теоретические и методологические основы государственного регулирования реальных доходов населения, основные факторы, влияющие на формирование доходов, а также роль инструментов фискальной, денежно-кредитной, социальной и институциональной политики.

Ключевые слова: реальные доходы населения, государственная политика, регулирование доходов, фискальная политика, денежно-кредитная политика, социальная защита, инфляция, занятость, минимальная заработная плата, общественное благосостояние.

KIRISH

Aholi real daromadlarini barqaror oshirish hamda ularning xarid qobiliyatini saqlab qolish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholining real daromadlari darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi, kambag'allik darajasi, iste'mol bozori faolligi va inson kapitalining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois real daromadlarning barqaror o'sishini ta'minlash, daromadlar tengsizligini qisqartirish hamda aholi farovonligini yuksaltirish davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri aholi real daromadlarini oshirish, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoya tizimining manzilliligini yanada kuchaytirish orqali fuqarolarning turmush darajasini yuksaltirishdan iborat. Bu borada minimal ish haqi va pensiyalarni bosqichma-bosqich oshirish, ijtimoiy transferlar ko'lamini kengaytirish, soliq yukini maqbullashtirish, bandlikni ta'minlash hamda narxlar barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Aholini yuqori mehnat daromadlari bilan ta'minlash, ularning ijodiy va kasbiy o'sishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash lozim. Barcha sa'y-harakatlarimiz zahirida bitta maqsad – fuqarolarning real daromadlari va real oylik maoshlarining inflyatsiya darajasiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlash turibdi."* Ushbu strategik yondashuv mamlakatda iqtisodiy rivojlanish natijalari, eng avvalo, aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi zarurligini ifodalaydi.

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar, inflyatsion jarayonlar, geoiqtisodiy omillar, mehnat bozori transformatsiyasi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi aholi real daromadlarini davlat



tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda fiskal va monetar siyosat, minimal ish haqi siyosati, progressiv soliqqa tortish, ijtimoiy transferlar, bandlikni rag'batlantirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ilmiy asosda baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, davlat siyosatining asosiy mexanizmlarini tahlil qilish, ularning aholi farovonligiga ta'sirini baholash hamda mavjud masalalarni yanada samarali hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish masalalari iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala iqtisodiy o'sish, daromadlar taqsimoti, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda aholi farovonligini yuksaltirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Aholi daromadlarining iqtisodiy mohiyatini tushunishda boshlang'ich nuqta daromadning ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi. Daromadlarning shakllanish manbai ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni jonli mehnat orqali yaratilgan qiymat hisoblanadi. Biroq pirovard natijada daromad taqsimlash jarayonida shakllanadi. Taqsimlash munosabatlari, avvalo, mulkiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zlashtirish munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Aynan o'zlashtirishning turli darajalari aholi daromadlari miqdorini belgilaydi.

Professor Sh. Shodmonovning fikricha, "Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi" [6].

A. O'lmasov va A. Vahobov quyidagi ta'rifni keltiradilar: "Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi" [4].

X. S. Muxitdinov aholi turmush darajasining oshishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita bog'liqligini o'rgangan hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishda xizmat ko'rsatish sohasining muhim o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, aholi turmush darajasi deganda insonlarning zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning iste'mol imkoniyatlari hamda ehtiyojlarining qondirilish holati tushuniladi [3].

B. K. G'oyibnazarovning fikriga ko'ra, nominal daromaddan farqli ravishda aholi ixtiyoridagi daromad tarkibiga faqat tovar va xizmatlarning shaxsiy iste'moli hamda jamg'arish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan daromad qismi kiritiladi [2].

Xojiyevning ta'kidlashicha, mamlakatda aholi daromadlari muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki ular uy xo'jaliklarining iste'mol hajmi, jamg'arish imkoniyatlari va investitsion faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7].

N. Rajabov va B. Uralovning fikriga ko'ra, "Aholi daromadlari nominal va real ko'rinishda namoyon bo'ladi. Nominal daromadlar pul shaklida olingan daromadlardir. Real daromadlar esa iste'mol narxlari indeksini hisobga olgan holda tuzatilgan joriy davrdagi nominal pul daromadlaridir" [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, davlatning fiskal, monetar va ijtimoiy siyosat vositalarining aholi real daromadlariga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan tegishli xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Aholi real daromadlarini oshirishni davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi aholining xarid qobiliyatini oshirish, kambag'allik darajasini qisqartirish hamda ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishdan iborat. Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda



real daromadlarning o'sishi davlatning fiskal va monetar siyosati, mehnat bozori, soliq tizimi, ijtimoiy himoya dasturlari hamda bandlikni rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi.

Davlat aholi real daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli tartibga solish mexanizmlaridan foydalanadi. Ushbu mexanizmlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya choralarini kuchaytirish, soliq siyosatini maqbullashtirish hamda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur yondashuvlar aholi real daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quyida aholi real daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy davlat siyosati yo'nalishlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Aholi daromadlari nuqtayi nazaridan davlat siyosati va uning yo'nalishlari¹

Aholi daromadlarini tartibga solish va ularni oshirish davlatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun davlat ish haqi siyosatini takomillashtirish, progressiv soliqqa tortish mexanizmlarini rivojlantirish, narxlar barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Quyida ushbu yo'nalishlarning asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

1. Ish haqi siyosati va minimal ish haqini oshirish. Aholi daromadlarining asosiy manbalaridan biri mehnat haqi hisoblanadi. Shu sababli davlat mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish va minimal ish haqi miqdorini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Minimal ish haqi miqdorining oshirilishi kam daromadli aholi qatlamlarining real daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ish beruvchilar tomonidan belgilangan eng kam miqdordan kam ish haqi to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda AQShda minimal ish haqi muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilib, iqtisodiy sharoitlar va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda yangilanib boriladi.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda minimal ish haqi miqdori bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Bu esa aholining xarid qobiliyatini qo'llab-quvvatlash va turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

1 Muallif tomonidan yaratildi



Davlat sektorida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ish haqi miqdorini oshirish aholining umumiy daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda boshqa davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish ularning moddiy farovonligini oshirish bilan birga, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat xususiy sektor korxonalarini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiyalar kabi iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanishi mumkin. Bunday yondashuv mehnatga haq to'lash darajasining oshishiga hamda mehnat bozorida barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Progressiv soliqqa tortish tizimi va ijtimoiy transferlar. Aholi daromadlarini tartibga solishda soliqlar va ijtimoiy transferlar muhim o'rin tutadi. Davlat soliq yukini adolatli taqsimlash hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali aholi farovonligini oshirishga ko'maklashadi.

Progressiv soliqqa tortish tizimida yuqori daromadga ega shaxslar nisbatan yuqoriroq stavkada soliq to'laydi, past daromadli fuqarolar uchun esa soliq yuki yengillashtiriladi yoki amaldagi qonunchilik doirasida tegishli imtiyozlar qo'llaniladi. Bu daromadlarning mutanosib taqsimlanishi va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan, Germaniya, Shvetsiya va Kanada kabi davlatlarda progressiv soliqqa tortish tizimi samarali qo'llanilmoqda. Mazkur tajribaning ayrim elementlaridan milliy sharoitlarni hisobga olgan holda foydalanish aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Davlat kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida bolalar nafaqasi, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik bo'yicha nafaqa hamda kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam dasturlarini amalga oshiradi. Ushbu to'lovlar aholining xarid qobiliyatini saqlab qolish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Masalan, Braziliyada amalga oshirilgan Bolsa Família dasturi shartli pul transferlari orqali kam daromadli oilalarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari hamda subsidiyalarni qo'llash aholining ixtiyorida qoladigan daromadlar hajmini oshirishga xizmat qiladi.

3. Narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsion jarayonlarni boshqarish. Inflyatsiya darajasining oshishi aholining real daromadlari va xarid qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois narxlar barqarorligini ta'minlash iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Markaziy bank pul-kredit siyosati vositalari orqali inflyatsion jarayonlarni muvofiqlashtiradi. Zarur hollarda foiz stavkalari iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib qayta ko'rib chiqiladi, bu esa iqtisodiyotda pul-kredit muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlar bozorida narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar qo'llaniladi. Xususan, energetika sohasida tarif siyosati amaldagi qonunchilik va bosqichma-bosqich islohotlar asosida takomillashtirib borilmoqda.

Bundan tashqari, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va raqobatni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish bozorda narxlarning iqtisodiy asoslangan shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. Aholining real daromadlarini oshirishda yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi.


Davlat bandlikni ta'minlash maqsadida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, yo'l-transport, ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlarini rivojlantirish hamda davlat xizmatlari sohasida yangi ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

Tadbirkorlik esa yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning muhim manbalaridan biridir. Shu munosabat bilan yangi biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari taqdim etish, startup va kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini rag'batlantirish kabi mexanizmlar qo'llanilmoqda.

Xususan, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, ular bandlikni kengaytirish va aholi daromadlarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, yuqorida ko'rib chiqilgan mexanizmlar aholi daromadlarini tartibga solish va ularni barqaror oshirishning muhim vositalari hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarining izchil davom ettirilishi aholi turmush darajasini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy farovonlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu chizma aholi daromadlarini shakllantirish mexanizmini o'zida aks ettiradi. Unda daromadlarning shakllanish maqsadi, vazifalari va prinsiplari ko'rsatilgan. Shuningdek, daromadlarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodlar, instrumentlar va huquqiy-me'yoriy asoslar bayon etilgan (2-rasm).



2-rasm. Aholi daromadlarining shakllanish mexanizmi²

Chizmada iqtisodiy munosabatlar hamda daromad manbalarining o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan. Unda iste'mol, taqsimot va institutsional-iqtisodiy munosabatlar daromadlarning jamiyatdagi aylanish mexanizmini ifodalaydi. Daromadlar korxonalar, davlat va aholi ishtirokida shakllanib, ish haqi, tadbirkorlik daromadlari, investitsiya daromadlari hamda ijtimoiy transferlar orqali taqsimlanadi.

Mazkur mexanizm aholining moliyaviy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad manbalarining diversifikatsiyalashuvi va ularning barqaror o'sishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois daromadlarni shakllantirish va taqsimlash tizimini muntazam ravishda tahlil qilish hamda takomillashtirib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Aholi daromadlarining shakllanish mexanizmi zamonaviy iqtisodiy tizimning eng murakkab va ko'p qirrali tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm nafaqat iqtisodiy jarayonlar, balki ijtimoiy institutlar, demografik omillar, innovatsion texnologiyalar hamda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda aholi daromadlarining shakllanishi faqat ish haqi yoki ishlab chiqarish omillaridan olinadigan daromadlar bilan cheklanmay, balki inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, intellektual mulk, innovatsion faoliyat, moliyaviy aktivlar va ijtimoiy transferlar ta'sirida shakllanadigan murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Shu sababli mazkur mexanizmni tizimli va ilmiy asosda o'rganish iqtisodiyot nazariyasi hamda amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, daromad manbalarining turli ijtimoiy qatlamlar kesimida shakllanish xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zgarish dinamikasini baholash hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Birinchidan, daromadlar shakllanishining klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalari asosan mehnat, kapital va yer kabi ishlab chiqarish omillarining bozor qiymati asosida taqsimlanishini izohlaydi. Klassik iqtisodchilar daromadlarning shakllanishini ishlab chiqarish jarayonlari va bozor mexanizmlari bilan bog'lagan bo'lsalar, neoklassik maktab vakillari chegaraviy unumdorlik nazariyasi asosida har bir ishlab

2 Muallif ishlanmasi.



chiqarish omili uning iqtisodiyotga qo'shgan hissasiga mos daromad olishini ta'kidlaydilar. Biroq zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida ushbu yondashuvlar yangi iqtisodiy jarayonlarni to'liq qamrab ololmaydi. Chunki bugungi kunda raqamli platformalar, gig-iqtisodiyot, frilanserlik, elektron tijorat, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish tizimlari daromadlarning tarkibi hamda shakllanish mexanizmlarini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Natijada insonning iqtisodiy qiymati nafaqat jismoniy mehnat, balki bilim, kreativlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari va innovatsion salohiyati bilan ham belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, daromadlarning shakllanishini raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat va global iqtisodiy omillar uyg'unligida tahlil qilish zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining turli ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlari uchun daromad manbalari va ularning shakllanish mexanizmlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, yollanma xodimlar uchun asosiy daromad manbai mehnat haqi bo'lsa, tadbirkorlar uchun foyda va biznes daromadlari, pensionerlar uchun pensiyalar va ijtimoiy transferlar, talabalar hamda yoshlar uchun stipendiyalar, grantlar yoki vaqtinchalik mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, yuqori malakali mutaxassislar va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar asosan intellektual mehnat natijasida daromad olsalar, qishloq hududlarida agrar faoliyat va o'zini o'zi band qilish shakllari muhim daromad manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu farqlar bozor kon'yunkturasi, fiskal siyosat, soliqqa tortish tizimi, davlat subsidiyalari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari, kreditlash imkoniyatlari va innovatsion infratuzilmaning turli qatlamlarga turlicha ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bu esa aholi farovonligini oshirish bo'yicha differensial va maqsadli siyosat yuritish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga ehtiyoj sezuvchi qatlamlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir.

Uchinchidan, tadqiqotda taklif etilgan daromadlar shakllanishining integratsiyalashgan nazariy modeli zamonaviy iqtisodiy transformatsiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Mazkur model innovatsion texnologiyalar, davlat siyosati, global iqtisodiy integratsiya, mehnat bozori rivojlanishi va raqamli iqtisodiyotning o'zaro ta'sirini yagona tizim sifatida talqin etadi. Bunday kompleks yondashuv aholi real daromadlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda modelashtirish, prognozlash va strategik rejalashtirish imkonini yaratadi. So'nggi yillarda kuzatilayotgan global iqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro moliyaviy bozorlardagi tebranishlar, energiya resurslari narxlarining o'zgarishi hamda xalqaro iqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi sharoitida mazkur modelning amaliy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bunday integratsiyalashgan yondashuv iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi real daromadlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, davlatning fiskal va ijtimoiy siyosatini izchil takomillashtirish aholi daromadlari tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy davlat siyosatining ustuvor maqsadlari daromadlar mutanosibligini ta'minlash, iqtisodiy inklyuzivlikni rivojlantirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirishdan iborat. Soliq siyosatini takomillashtirish, progressiv soliqqa tortish mexanizmlarini rivojlantirish, ijtimoiy transferlarning manzilliligini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiyalarni kengaytirish orqali aholi real daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda davlat siyosatini ijtimoiy adolat, iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, kambag'allikni qisqartirish, o'rta sinfni kengaytirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan ilmiy takliflar alohida amaliy ahamiyatga ega.

Beshinchidan, daromadlarning shakllanishi global iqtisodiy jarayonlar bilan tobora uzviy bog'lanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro mehnat migratsiyasi, raqamli xizmatlar eksporti, xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi va global qiymat zanjirlarining rivojlanishi milliy daromadlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalar orqali xalqaro xizmatlar ko'rsatish, masofaviy bandlik hamda elektron tijoratning rivojlanishi aholining yangi daromad manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiy integratsiya milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda xalqaro tajribalar va ilg'or xorijiy modellarning tahlili asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar milliy daromadlar tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning innovatsion iqtisodiyot, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha tajribalarini milliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarining shakllanish mexanizmi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va institutsional omillar ta'sirida ham shakllanadi. Qonun ustuvorligi, mulk huquqining ishonchli himoyasi, ochiq va samarali boshqaruv tizimi, moliyaviy institutlarning rivojlanganligi hamda qulay biznes muhiti daromadlar shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Institutsional sifatning yuksalishi iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalar hajmini kengaytirish va aholi daromadlarini



o'shish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli daromadlar shakllanishini institutsional yondashuv asosida tahlil qilish mazkur tadqiqotning muhim ilmiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy rivojlanishi bilan uzviy ravishda takomillashib borgan. Dastlab daromadlar asosan feodal majburiyatlari, soliqlar va natural yig'img'lar orqali taqsimlangan bo'lsa, sanoat inqilobi davrida ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davlatning iqtisodiy jarayonlardagi tartibga soluvchi rolini yanada kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada mehnat qonunchiligini rivojlantirish, minimal ish haqi tizimini joriy etish, ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini kengaytirish hamda progressiv soliqqa tortish tizimini takomillashtirish orqali daromadlar mutanosibligini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan samarali mexanizmlar shakllandi.

1970-yillardan boshlab bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosatning keng qo'llanilishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlar tajribasi daromadlar taqsimotida muvozanatni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi. Shu sababli bugungi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks iqtisodiy siyosatni izchil amalga oshirmoqda.

Hozirgi bosqichda raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, progressiv soliqqa tortish mexanizmlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini oshirish, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash aholi real daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim omillari bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
2. G'oyibnazarov B.K., Turg'unov T.S. O'zbekistonda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarining statistik tahlili // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali. — 2018. — № 3. — B. 5.
3. Muxiddinov X.S. Hudud aholisi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy rivojlanishini modellashtirish: monografiya. — Toshkent: Fan, 2009. — 12 b.
4. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Rasmiy statistika ma'lumotlari [Elektron resurs]. — URL: <https://stat.uz> (murojaat qilingan sana: 2026.07.23).
6. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. — 630 b.
7. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Aholi daromadlarining tarkibiga soliqning ta'siri [Elektron resurs]. — URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/07/20/aholi-daromadlarining-tarkibiga-soliqning-ta-siri/> (murojaat qilingan sana: 2026.07.23).
8. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ilmiy maqola [Elektron resurs]. — URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2293/2390> (murojaat qilingan sana: 2026.07.23).
9. Мелехин Ю.В. Рынок сбережений. Социально-экономические механизмы привлечения сбережений населения в экономику России. — Москва: Издательский центр «Акционер», 2002. — 111 с.
10. Суринов А.Э. Доходы населения. Опыт количественных измерений. — Москва: Финансы и статистика, 2000. — 112 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>